

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 12-mart № 4 (1565)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

TARAQQIYOT GAROVI

Biz ishlab chiqarishni ta'minlash tizimida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlab kombinatning barqaror rivojlanishiga xizmat qilamiz.

2 ➔

"MO'TABAR AYOL"

Mehnat faoliyati davomida transportyorchi Xayriniso Rustamova o'z vazifalarini doimo yuqori saviyada bajarib kelmoqda.

3 ➔

ENG MUSTAHKAM DEVOR

Bugun zamonaviy texnologiyalar xavfsizlikning muhim qismi. Biroq eng mustahkam devor – bu ma'naviyatli insonlardir.

4 ➔

RAMAZON HAYITI

MEHR-OQIBAT VA SHUKRONALIK AYYOMI

Yurtimizda muborak oy – Ramazonning yakun topishi bilan barchamiz orziqib kutgan Ramazon hayiti kirib keladi. Bu ulug' ayyom butun musulmon olamida, jumladan, go'zal va fayzli diyorimiz – O'zbekistonda ham katta shukuh va samimiyat bilan nishonlanadi.

Ramazon hayiti bu nafaqat bir oylik ro'zaning yakuni, balki sabr, toqat, mehr-shafqat va bag'rikenglik kabi insoniy fazilatlarining tantanasidir. Ramazon oyi davomida inson o'z nafsini tarbiyalaydi, muhtojlarga yordam qo'lini cho'zadi, qalbini poklaydi. Hayit esa ana shu ezgu amallarning mukofoti, shukronalik va quvonch kunlaridir.

Ayniqsa, yurtimizda so'nggi yillarda milliy va diniy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi. Xalqimizning urf-odat va an'alariga yuksak ehtirom ko'rsatilmoqda. Ramazon va Qurbon hayitlari rasmiy bayram sifatida keng nishonlanib, aholining munosib dam olishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Hayit tongida masjidlarda o'qiladigan hayit namozi, keksalar holidan xabar olish, ziyoratgohlarga borish, ota-ona va

yaqinlarni yo'qlash, bolajonlarga sovg'alar ulashish bularning barchasi xalqimizning asrlar davomida shakllangan go'zal an'alaridir. Bu kunda oilalarda das-turxonlar yozilib, dillar quvonchga to'ladi, adovat va gina-kuduratlar unutiladi.

Ramazon hayiti jamiyatimizda birdamlik

va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydi. Ayniqsa, turli soha vakillari, jumladan, og'ir va mas'uliyatli kasb egalari bo'lgan metallurglarimiz uchun ham bu ayyom alohida ahamiyatga ega. Ular mamlakatimiz sanoat salohiyatini yuksaltirish, iqtisodiy taraqqi-yotni ta'minlash yo'lida fidokorona mehnat qilib kelmoqdalar. Ularning mashaqqatli va sharaflil mehnati e'tirofga loyiq.

Hayit kunlari har bir xonadonga quvonch, fayz va baraka olib kirsin!

Shu fursatdan foydalanib, yurtimizning barcha fuqarolarini, siz aziz metallurglarimizni kelayotgan muborak Ramazon hayiti bilan chin qalbdan tabriklaymiz!

Barchangizning xonadoningizga tinchlik-osoyishtalik, sog'lik-salomatlik, baxt va omad yor bo'lsin! Yaratganning o'zi barchamizni o'z panohida asrasin, yurtimiz ravnaqi va xalqimiz farovonligi yo'lida qilayotgan ezgu ishlarimizga baraka ato etsin!

Kelayotgan Hayitimiz muborak bo'lsin!



NAVRO'Z YANGILANISH TIMSOLI

INSON VA TABIAT UYG'UNLIGINI TARANNUM ETADI

Navro'z asrlar qa'ridan bizgacha yetib kelgan, tabiat uyg'onishi, mehr-oqibat va yangilanish timsoli bo'lgan ulug' bayramdir. Sharq xalqlari hayotida alohida o'rin tutadigan ushbu qutlug' sana inson va tabiat uyg'unligini, bag'rikenglik va hamjihatlikni tarannum etadi. Navro'z kunlarida yurtdoshlarimiz uy-joylarini poklab, atrof-muhitni obod qiladi, ko'ngillarni kek-adovatdan tozalab, yangicha orzu-umidlar bilan yangi faslni qarshi oladi.

Bayram dasturxonlarida sumalak va milliy taomlar tortiladi, keksalar holidan xabar olinadi, ehtiyojmandlarga saxovat ko'rsatiladi. Eng muhimi, Navro'z odamlarni birlashtiradi, mehr-muruvvat va o'zaro hurmat tuyg'ulari-

ni mustahkamlaydi. Shu bois bu ayyom nafaqat tabiatning, balki qalblarimizning ham yangilanish davridir.

Navro'z arafasida ezgu an'alarimizdan biri – umum-xalq hasharini o'tkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Vazirlar Mahkamasining farmoyishiga muvofiq, joriy yilning 13-14-mart kunlari mamlakatimiz bo'ylab "Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi!" shiori ostida keng ko'lamli umumxalq hashari tashkil etiladi.

(Davomi 2-sahifada).



INSON VA TABIAT UYG'UNLIGINI TARANNUM ETADI

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Hashar xalqimizning azaliy qadriyati, o'zaro ko'mak va hamjihatlikning amaliy ifodasidir. Ushbu kunlarda mahallalar, ko'cha va xiyobonlar, korxona va tashkilotlar hududlarida obodonlashtirish ishlari amalga oshiriladi, daraxt va gul ko'chatlari ekiladi, hududlar tartibga keltiriladi.

Metallurgiya kombinati jamoasi ham ushbu xayrli tashabbusda faol ishtirok etib, ishlab chiqarish hududlari va atrof-muhitni obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarini amalga oshiradi. Bu esa korxonamizda nafaqat tozalik va tartibni ta'minlaydi, balki jamoa a'zolari o'rtasida birdamlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydi.

Zero, yurt obodligi har birimizning faol ishtirokimiz va mas'uliyatli munosabatimizga bog'liq. Navro'zning fayzli kunlarida amalga oshiriladigan har bir ezgu ish yurtimiz taraqqiyoti va farovonligiga xizmat qiladi.

**Hurmatli metallurglar,
qadrli bekobodliklar!**

Sizlarni yaqinlashib kelayotgan Navro'z ayyomi bilan tabriklaymiz. Barchangizga baxt, sihat-salomatlik, oilaviy baxt yor bo'lsin!

Davlat xaridlari tizimi kombinat faoliyatining eng mas'uliyatli va strategik yo'nalishlaridan biridir. Ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligi, bo'linmalarining barqaror ishlashi, investitsiya, modernizatsiya va rekonstruksiya loyihalarining o'z vaqtida amalga oshirilishi ko'p jihatdan xarid jarayonlarining shaffof va qonuniy tashkil etilishiga bog'liq.

DAVLAT XARIDLARIDA HALOLLIK – BARQAROR TARAQQIYOT GAROVI

Davlat xaridlarida korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilishi nafaqat moliyaviy yo'qotishlarga, balki ishlab chiqarish samaradorligining pasayishiga, sifatsiz mahsulot yoki xizmatlar xarid qilinishiga olib keladi.

Bunday holatlar nafaqat iqtisodiy, balki ma'naviy zarar ham keltiradi. Shuning uchun davlat xaridlarida halollikni ta'minlash har bir mas'ul xodimning shaxsiy burchidir. Bu masalaga faqat huquqiy yoki rasmiy talab sifatida emas, balki vijdoniy va kasbiy mas'uliyat nuqtai nazaridan yondashishimiz shart.

Bizning departamentda davlat xaridlari jarayonlari qonunchilik talablariga qat'iy rioya etgan holda, ochiq raqobat va shaffoflik tamoyillari asosida amalga oshiriladi. Har bir xarid bo'yicha texnik topshiriqlar aniq va xolis shakllantiriladi, ishtirokchilar uchun teng imkoniyat yaratiladi, qaror qabul qilishda esa shaxsiy emas, ishlab chiqarish manfaatlar ustuvor qo'yiladi. Elektron savdo maydonchalaridan foydalanish, hujjatlashtirish tartibining kuchaytirilishi va ichki nazorat mexanizmlari aynan shu maqsadga xizmat qiladi.

Kombinat mulki va davlat mablag'lari bu jamoaning umumiy boyligi. Ularni asrash, samarali va maqsadli sarflash har bir rahbar va mutaxassisning burchidir. Tashmachilik, sun'iy narx oshirish, tan-

ish-bilishchilik yoki boshqa har qanday noqonuniy harakatlarga nisbatan murosasiz munosabat bizning qat'iy pozitsiyamizni tashkil etadi. Korxona manfaatiga zid har qanday holat o'z vaqtida aniqlanishi va tegishli choralar ko'rilishi shart.

Biz barcha xodimlarni: qonun talablariga rioya qilishga, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuvi haqida o'z vaqtida xabar berishga, davlat xaridlarida adolatli va xolis bo'lishga chaqiramiz. Shubhali holatlarga befarq bo'lmaslik – bu nafaqat xizmat vazifasi, balki yuksak ma'naviy mas'uliyat hamdir.

Biz ishlab chiqarishni ta'minlash tizimida shaffoflik va qonuniylikni ta'minlash orqali kombinatimizning barqaror rivojlanishiga xizmat qilamiz. Faqat halol va ochiq mexanizmlar orqali kombinatda olib borilayotgan islohotlarni samarali amalga oshirish, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish orqali korxona nufuzini yanada yuksaltirish mumkin. Korrupsiyaga va manfaatlar to'qnashuviga qarshi kurash bu bir martalik tadbir emas, balki kundalik ish uslubimizga aylanishi lozim bo'lgan qat'iy tamoyildir.

Jahongir OLIMOV,
"O'zmetkombinat" AJning
Ishlab chiqarishni ta'minlash
departamenti direktori.

YANGI XODIMLAR UCHUN

Kombinatda yangi ishga qabul qilingan xodimlar uchun maxsus o'quv kursi doirasida seminar-treninglar tashkil etildi. Ushbu tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad xodimlarni korxonada amal qilayotgan ichki me'yoriy hujjatlar, axloqiy qoidalar hamda korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati bilan yaqindan tanishtirishdan iborat.

SEMINAR-TRENINGLAR O'TKAZILDI



Treninglar davomida kombinat Komplaens xizmati menejeri G'anisher Nurmatov ishtirokchilarga korxonada amal qilayotgan Korrupsiyaga qarshi siyosat, Axloq kodeksi hamda Manfaatlarga to'qnashuvini boshqarishga oid talablar yuzasidan batafsil ma'lumot berdi. U o'z ma'ruzasida ushbu hujjatlar xodimlar faoliyatida halollik, ochiqlik va mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlashga xizmat qilishini alohida ta'kidladi.

Seminar davomida xodimlarning

axloqiy me'yorlarga sodiqligini kuchaytirish, manfaatlar to'qnashuvi oldini olish va uni to'g'ri boshqarish bo'yicha tavsiyalar berildi. Shuningdek, korrupsiyaning har qanday ko'rinishiga murosasiz munosabatni shakllantirish, bu borada har bir xodimning shaxsiy mas'uliyati muhim ekanligiga alohida e'tibor qaratildi.

Seminar-trening ishtirokchilari o'zlari qiziqtirgan savollarga javob oldilar va kelgusida ish faoliyatida mazkur bilim va tavsiyalardan samarali foydalanishlarini bildirdilar.

Bunday o'quv tadbirlari xodimlar o'rtasida korporativ madaniyatni mustahkamlash, shaffof va adolatli ish muhitini yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

G'ani SHEROV.

SO'RAGAN EDINGIZ

SOLIQLARDAN IMTIYOZ BORMI?

Agar xodimga yil davomida bir necha marta (masalan, farzandi nikohi va boshqa oilaviy holat munosabati bilan) moddiy yordam berilsa, unga soliqlardan imtiyoz beriladimi?

G. Shodiyev.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 378-moddasi 1-bandiga muvofiq, 377-moddada nazarda tutilgan ayrim holatlarda (jumladan, bola tug'ilishi, xodim yoki uning farzandlari nikohdan o'tishi davrida beriladigan moddiy yordam) soliq davri mobaynida mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 4,22 baravari-gacha bo'lgan summa:

- jismoniy shaxslar daromad solig'idan (JSHDS) ozod etiladi;

- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvagariga ajratma (SHJBPH) hisoblanmaydi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi 403-moddasi 1-qismiga asosan, mazkur moddiy yordam xodimning boshqa daromadi sifatida qaraladi va ijtimoiy soliq solish obyektiga kirmaydi. Shu sababli, uning summasidan qat'i nazar ijtimoiy soliq hisoblanmaydi.

Inomjon ESHONQULOV,
huquqshunos.



MEHNAT MUHOFAZASI

BARQAROR VA XAVFSIZ ISHLAB CHIQUARISH KAFOLATI

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 24-dekabrda 819-sonli "Mehnatni muhofaza qilish sohasiga oid ayrim nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori yurtimizda mehnatni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan muhim huquqiy hujjat bo'ldi. Ushbu qaror O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-oktabrdagi PQ-347-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan mehnatni muhofaza qilish sohasidagi bir qator muhim nizomlar tasdiqlandi. Jumladan:

- Tashkilotlarda mehnatni muhofaza qilish ishlarini hamda mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida;
- Mehnatni muhofaza qilish

bo'yicha yo'l-yo'riqdan o'tkazish, o'qitish va bilimlarni tekshirish, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash to'g'risida;

- Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha yo'riqnomalarni ishlab chiqish to'g'risida;

- Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha vakil to'g'risida nizomlar qabul qilindi.

Mazkur qarorning metallurgiya sohasida ham ahamiyati katta. Ma'lumki, metallurgiya ishlab chiqarishi yuqori xavfli sohalaridan biri hisoblanadi. Yuqori harorat, og'ir va yirik uskunalar, bosim ostidagi agregatlar va kimyoviy omillar – bularning barchasi mehnat muhofazasiga alohida e'tibor talab qiladi.

Qaror asosida metallurgiya korxonalarida ham mehnat muhofazasi xizmati faoliyati qayta ko'rib

chiqiladi va yanada tizimlashtiriladi. Jumladan, har bir xodimning bilim va ko'nikmalari muntazam ravishda tekshirib boriladi. Barcha ish o'rinlari bo'yicha yo'riqnomalar amaldagi talablarga muvofiq qayta ishlab chiqiladi. Mehnat muhofazasi bo'yicha vakillar instituti faoliyati kuchaytiriladi.

Bu esa ishlab chiqarishda baxtsiz hodisalarning oldini olish, kasb kasalliklarini kamaytirish va sog'lom mehnat muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Mehnat muhofazasi bu faqat muhandis yoki rahbarning vazifasi emas. Bu har bir ishchi-xodimga daxldor masala. Har bir ishchi-xodim belgilangan yo'riqnomalarga qat'iy rioya qilishi, shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanishi, xavfli vaziyatlarni zudlik bilan xabar qilishi, o'quv va yo'l-yo'riq tadbirlarida faol

ishtirok etishi lozim.

Faqatgina jamoaviy mas'uliyat orqali biz ish joylarimizni xavfsiz va barqaror qila olamiz.

Yangi qaror mehnat muhofazasi tizimini zamonaviy talablar asosida tashkil etishga xizmat qiladi. Bu esa nafaqat qonun talabini bajarish, balki inson hayoti va salomatligini eng oliy qadriyat sifatida e'tirof etish demakdir.

Aziz metallurglar!

Xavfsiz mehnat – barqaror ishlab chiqarish va oilalarimiz farovonligining garovidir. Keling, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilishni kundalik madaniyatimizning ajralmas qismiga aylantiraylik!

O'ktam O'SAROV,
Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha davlat texnik inspektori.



"MO'TABAR AYOL"

FIDOKORONA MEHNAT E'TIROFI

Elektrda po'lat eritish bo'linmasining Ohak kuydirish uchastkasining 3-razryadli transportyorchi Xayriniso Rustamova yurtimizda xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni va mehnatini munosib e'tirof etish maqsadida beriladigan "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Ushbu mukofot Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan topshiriladi.

Xayriniso Rustamova kombinatda 39 yildan buyon samarali mehnat qilib kelmoqda. U o'zining mas'uliyatligi, mehnatsevarligi va ishiga bo'lgan sado-

qati bilan jamoada katta hurmat qozongan tajribali mutaxassislardan biri hisoblanadi. Uzoq yillik faoliyati davomida u ishlab chiqarish jaryonlarida faol ishtirok etib, o'z vazifalarini doimo yuqori saviyada bajarib kelmoqda.

Shu bilan birga, Xayriniso Rustamova yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash, ularni kasb sirlariga o'rgatishda ham alohida faollik ko'rsatmoqda. U mehnat faoliyati davomida ko'plab shogirdlar etishtirgan bo'lib, bugungi kunda ular ham ishlab chiqarishda munosib mehnat qilishmoqda.

Metallurglar jamoasi uchun hamkasabamizning ushbu yuksak e'tirofga sazovor bo'lishi katta faxr va iftixordir. Bu mukofot nafaqat uning shaxsiy mehnati, balki kombinat jamoasining samarali faoliyatiga berilgan bahodir.

Komil AZIMOV.

Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan Respublika Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari kengashining Bekobod shahar hududiy filiali tomonidan bayram tadbiri tashkil etildi.

Tadbirida O'zbekiston Respublikasi Konchilik va metallurgiya sanoati faxriylari kengashi raisi, O'zbekiston Qahramoni Aleksandr Farmonov hamda filial rahbari Ilhom Qurbonov ishtirok etib, mehribon va fidoyi ayollarni samimiy muborakbod etdilar. Ular o'z so'zlarida xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rni, mehnat faoliyati hamda ko'p yillik fidokorona xizmatlari alohida e'tirofga loyiq ekanini ta'kidladilar.

"FAOL FAXRIY" KO'KRAK NISHONI TOPSHIRILDI



Tadbir doirasida ko'p yillik samarali mehnati va jamoat ishlaridagi faol ishtiroki uchun mehnat faxriylari Zamira Xudoyorova va Olga Lozovaya "Faol faxriy" ko'krak nishoni bilan taqdirlandilar.

Shuningdek, kengash faoliyati rivojiga munosib hissa qo'shib kelayotgan bir guruh faxriy ayollarga esdalik sovg'alari topshirildi.

Samimiy va bayramona ruhda o'tgan mazkur tadbir barcha ishtirokchilarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlab, xotin-qizlarga bo'lgan e'tibor va ehtiromning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

Ma'murjon MADMAROV.

TALON-TOROJLIKNING OLDI OLINDI

Davlat va jamoat mulki xalq boyligi hisoblanadi. Unga nisbatan har qanday noqonuniy harakat, hatto mayda miqdorda bo'lsa ham, jamiyat manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu bois qonunchilikda bunday huquqbuzarliklar uchun javobgarlik belgilangan. Afsuski, ayrim hollarda bunday qonunbuzarliklar amaliyotda ham uchrab turibdi.

Shunday holatlardan biri Bekobod shahrida ko'rib chiqildi. Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudida "O'zmetkombinat" AJ mulkini mayda miqdorda talon-toroj qilish bilan bog'liq ma'muriy ish ochiq sud majlisida ko'rib chiqildi.

Sudda aniqlanishicha, 2025-yil 17-dekabr kuni "O'zmetkombinat" AJ hududidagi nazorat-o'tkazish punktida fuqaro Jahongir Nortajiyev boshqaruvidagi avtomashinada korxonaga tegishli 9 dona, umumiy og'irligi 144 kilogramm temir bo'laklarini olib chiqib ketayotgan vaqtida aniqlangan. Temir bo'laklarining umumiy qiymati 603 ming 456 so'mni tashkil etgan.

Sud majlisida huquqbuzar o'z aybiga iqrar bo'lib, qilgan ishidan pushaymon ekanini bildirgan. Sud ish hujjatlarini o'rganib chiqib, mazkur harakatni O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 61-moddasi 1-qismiga muvofiq huquqbuzarlik deb topdi.

QILMISH-QIDIRMISH

Qarorga ko'ra, Jahongir Nortajiyevga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravari – 412 ming so'm jarima jazosi tayinlandi. Ashyoviy dalil sifatida olingan temir bo'laklar korxonaga qaytarildi.

Bu kabi holatlar ishlab chiqarish korxonalarida mulkni asrash va mehnat intizomiga qat'iy rioya qilish muhim ekanini yana bir bor eslata-di. Qonunbuzarlikka yo'l qo'ymaslik har bir fuqaroning mas'uliyati ekani unutilmasligi lozim.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi sudyasi.

METALLURGLAR IJODIDAN

ENG MUSTAHKAM DEVOR

Kombinatimizda zamonaviy texnologiyalar, yuqori darajadagi himoya tizimi va avtomatik nazorat qurilmalari mavjud. Kameralar va signalizatsiyalar korxona mulkini himoya qiladi, deb ishonamiz.

Biroq ma'naviyati past insonlar o'zgalar mulkiga tajovuz qilishdan uyalmaydi. Oramizdagi ana shunday kimsalar noqonuniy yo'llar bilan kombinat mulkiga ko'z olaytirib, korrupsiya va manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yishi mumkin. Hayot shuni ko'rsatadiki, foyda uchun hamkasblariga, hattoki vataniga xiyonat qilgan insonlarni texnologiya yoki devor bilan to'sib bo'lmaydi. Zamonaviy qurilmalar ham qabih niyatni to'xtata olmaydi.

Tarixda ham bunga o'xshash saboq bor. Qadimgi xitoyliklar shimoldan keladigan yovvoyi qabilalardan himoyalash uchun Buyuk Xitoy devorini qurdilar. Ular devorning balandligi va qalinligi dushmani to'xtatadi, deb o'yladilar. Ammo devor qurilganidan keyingi birinchi yuz yillikda uch marta hujumga uchradilar. Dushmanlar devorni buzishga urinmadilar – qo'riqchilarni

pora bilan og'dirib, eshiklardan kirib hujum qildilar. Chunki toshdan qurilgan mustahkam devor bor edi, ammo sadoqat va vatanparvarlik ruhi yetarli emas edi.

Shu sababli bugungi kunda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bilan birga, metallurglarimiz ma'naviyati va ma'rifatiga ham alohida e'tibor qaratish shart.

Zamonaviy texnologiyalar, mustahkam devorlar va kuchli nazorat tizimlari xavfsizlikning muhim qismi. Ammo ularning samarasi inson omiliga bog'liq. Eng mustahkam devor – bu ma'naviyati yuksak insonlardir.

Ismat DIYOROV.



AZIZ METALLURGLAR!

**Bekobod o'g'lonlari,
Kombinat polvonlari,
Yorug'dir osmonlari,
Siz aziz metallurglar!**

**Sherdayin yuragingiz,
Dunyoday keng bag'ringiz,
Qizdirib olov taftingiz –
Siz aziz metallurglar!**

**Javlon urib ishlaysiz,
Tinim nima bilmaysiz.
Aslo ishdan tolmysiz –
Siz aziz metallurglar!**

**Har narsada epchilsiz,
Zukko, dono, oqilsiz.
Mehnat bilan baxtlisiz
Siz aziz metallurglar!**

Abdulla SALOMOV.

E'LON

TAKLIF QILAMIZ

2026-yil 31-mart kuni soat 10:00 da Metallurglar madaniyat saroyida "O'zmetkombinat" AJ mehnat jamoasining konferensiyasi bo'lib o'tadi.

Kun tartibi:

- 2025-yil uchun Jamoa shartnomasi va uning ilovalari bajarilishi yakunlarini sarhisob qilish.
- Yangi Jamoa shartnomasi loyihasini ko'rib chiqish.

Konferensiyada ishtirok etish uchun kombinat tarkibiy bo'linmalaridan 5 yil muddatga saylangan delegatlar taklif etiladi.

Ro'yxatdan o'tish konferensiya o'tkaziladigan kuni soat 08:30 da boshlanadi.

**"O'zmetkombinat" AJ
Kasaba uyushma
qo'mitasi.**

HIKMATLAR SANDIG'IDAN

• **Donishmandlarning tajribadan o'tkazgan to'rt hikmati bor:**

- Quvvat va toqatingiz yetmagan ishga kirishib o'zingizga zahmat va mashaqqat orttirmang.
- O'zingizga va boshqalarga manfaat yetkazmaydigan ish bilan mashg'ul bo'lib umringizni zoye o'tkazmang.
- Ikki yuzli, munofiqlarning so'zlariga aldanmang.

– Molu dunyoingiz va martabangiz bilan g'ururlanmang.

• **Qilingan yaxshilikning ofati – "yaxshilik qildim" deb maqtanib yurishdir.**

• **Molu dunyo ko'pligi boylik emas, ko'ngil to'qligi boylikdir.**

• **Biz juda tez qariymiz, aqlimiz esa juda kech kiradi. Umr fojiasi ana shunda.**

FUTBOL: PRO LIGA

TAYYORGARLIK QIZG'IN

O'zbekiston Pro ligasining bu yilgi mavsumining ilk o'yinlari sanasi aniq bo'ldi.

"Metallurg" birinchi turda Farg'onada "Yaypan" jamoasi mehmoni bo'ladi. Bu o'yin 5-aprelda o'tkazilishi belgilangan.

Xabaringiz bor, qayta tashkil etilgan "Metallurg" futbol klubi yangi mavsumga astoydil tayyorgarlik ko'rmoqda. Jamoa oldida turgan vazifa aniq – Superligaga chiqish.

Shu bois klub ta'sischisi 2026-yil 26-yanvar kundan bosh direktor lavozimiga Ulug'bek Mirzayev tayinladi. Tajribali mutaxassis bilan uch yillik bitim imzolandi.

Shuningdek, jamoa bosh murabbiyi sifatida Ilhom Mo'minjonov bilan 2028-yil oxirigacha mo'ljallangan shartnoma tuzilgani haqida yaqinda O'zPFL ham e'lon qildi.

Klub sport direktori lavozimida Farzod Zaripov faoliyat olib boradigan bo'ldi.

Bundan tashqari, Mo'minjonovga yana bir

qator mutaxassislar yordam beradi. Shu bilan birga, Jamshid Mirabdullayev klub texnik direktori lavozimida faoliyatini davom ettiradi. Nozim Esonov esa seleksioner vazifasida ish olib boradi.

Botir RAHMATOV.



MUASSIS:
**O'zbekiston metallurgiya
kombinati aksiyadorlik jamiyati.**

www.uzbeksteel.uz

Muharrir:
Ismadiyor MAMATQULOV

TAHRIRIYAT: Bekobod shahar
"O'zmetkombinat"
aksiyadorlik jamiyatining Ijroiya
apparati joylashgan.
Tel: 10-19

Gazeta oyda ikki marta
chiqadi.

Gazeta tahririyat kompyuterida
terilib, sahifalandi.
Bichimi A-3.
ISSN 2181-645X

Sahifalovchi:
Nigora Axmedova

Toshkent viloyati Axborot va
ommaviy kommunikatsiyalar
boshqarmasi tomonidan 2015-
yil 6-mayda 03-006 raqam bilan
ro'yxatga olingan.